

MAKTABGACHA TA'LIM JARAYONIDA INGLIZ TILINI O'QITISHNING SAMARALI  
METODIKALARI

**Qo'ldosheva Fotima Eshboy qizi**

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi*

*Ilmiy rahbar: Yo'ldosheva Salomat*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim jarayonida bolalarda ingliz tilini o'qitishda foydalaniladigan turli xil samarali metodlari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Mazkur maqolada bolalarga ingliz tilini qiziqarli va mazmunli o'qitish usullari bilan tanishishingiz mumkin.*

**Kalit so'zlar:** *Ingliz tili, metod, raqobatbardoshlik, axborot kommunikatsiya texnologiyalari, o'yinlar.*

**ЭФФЕКТИВНЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ В  
ДОШКОЛЬНЫХ УСЛУГАХ**

**Аннотация.** *В этой статье представлена информация о различных эффективных методах обучения детей английскому языку в дошкольном образовании. В этой статье вы можете узнать об интересных и содержательных методах обучения детей английскому языку.*

**Ключевые слова:** *английский язык, методика, конкурентоспособность, информационно-коммуникационные технологии, игры.*

**EFFECTIVE METHODS OF TEACHING ENGLISH IN PRE-SCHOOLS**

**Annotation.** *This article gives you a brief overview about various effective methods of teaching English to children in preschool education. In this article, you can learn about interesting and meaningful methods of teaching English to children.*

**Key words:** *English language, method, competitiveness, information communication technologies, games.*

**KIRISH**

Hozirgi kunda jamiyatda xorijiy tillarni, ayniqsa, ingliz tilini o'rganishga bo'lgan talab yuqori. Shu tufayli ingliz tili nafaqat maktablar va oliy ta'lim muassasalarida, balki maktabgacha ta'lim muassasalarida ham ta'limning majburiy tarkibiy qismiga aylantirildi. Xorijiy tillarni o'rganish har bir shaxsga jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishida, kengroq fikrlay olish qobiliyatini oshirishda va boshqa davlatlar madaniyatiga yaqinroq bo'lishida yordam beradi. Chet tillarni o'rganish uchun qulay yosh maktabgacha bo'lgan davrdagi yoshdir. Ularning chet tilini o'rganishga bo'lgan

qiziqishini oshirish uchun turli o'yin, bahslarga asoslangan metodlardan foydalanish kerak.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'qitishda eng yaxshi usullardan biri bu — o'yinlar orqali o'rgatishdir. Darslarni o'yinlar orqali o'tkazish til ko'nikmalarini va nutq qobiliyatlarini o'zlashtirish uchun qulay sharoit yaratadi. Ta'limda o'yinlarning turli xillari mavjud. Masalan, raqobatbardoshlik o'yini lug'at va savodxonlikni targ'ib etuvchi o'yinlarni o'z ichiga oladi. Bunda, bolalar g'oliblikni qo'lga kiritish maqsadida o'z ustida ko'proq ishlaydi.

Paragvaydagi Ta'lim tadqiqot institutida 2010- yilda „Bog'chada ingliz tilini o'qitishning metodik qo'llanmasi" nomli kitobni nashrdan chiqardi. Bu qo'llanmada aytiladiki, o'qituvchilar ingliz tilini o'qitishda bu yoshdagi bolalarning tabiiy rivojlanuvchan xususiyatlariga e'tibor qaratishi lozim. Shuningdek, qo'llanma ingliz tilini o'qitish jarayonida tatbiq etilishi kerak bo'lgan narsalarning 10 ta qoidasini o'z ichiga oladi. Bular quyidagilar:

1. Tushunish qobiliyati
2. O'yinlar va harakatlardan foydalanish
3. Tasavvurni rivojlantirish
4. Barcha sezgilarni faollashtirish
5. Bilvosita ta'lim
6. Faoliyatni o'zgartirish
7. Mustahkamlash
8. Individual yondashuv
9. Ona tilidan foydalanish
10. Ijobiy motivatsiyadan foydalanish.

Ushbu qoidalarga amal qilish orqali bolalarning ingliz tiliga bo'lgan qiziqishini oshirish va o'rgatilayotgan bilimlarni osonlik bilan o'zlashtirishiga erishish mumkin.

Mashg'ulotlar davomida faqat grammatik va leksik jihatlariga e'tibor qaratmasdan, bolalarning nutq va tafakkur faoliyatini faollashtirishni ham muhim jihat sifatida tatbiq etish kerak. Bolalar bir xillikdan tezda zerikadi va darsga e'tibori kamayadi. Shu sababli har bir darsni turli ko'rinishda, qiziqarli mashg'ulotlar bilan boyitish kerak. Shuningdek, darslarda bolalarning qiziqishi kamayganligi uchun emas, balki miyasi charchagani uchun chalindi. Shuning uchun dars jarayoni 30 daqiqadan oshmasligi kerak va darsning qolgan qismini turli audio va vizual vositalardan foydalangan holda, masalan, qo'shiqlar, mavzuli kartalar, bolalarga mos video dasturlar yordamida olib borish kerak. Bundan tashqari, ingliz tilidagi videolar ingliz tilini o'qitish jarayonida eng yaxshi yordamchilardan biridir. Chunki bolalar multfilm tomosha qilishni yaxshi ko'radi va ularni ketma-ket ko'rishdan zavqlanadi. Shu tufayli multfilmlar bir vaqtning o'zida ingliz tilini o'qitishning ko'plab muammolarini hal qila oladi

Bolalar soʻzlarning maʼnosi va ishlatilishi toʻgʻrisida boy tushunchani rivojlantirish uchun bir nechta ekspozitsiyalarni talab qiladi. Oʻqituvchilar bolalarning har bir sinf mashgʻulotlariga oʻrganishi uchun qiziqarli, yangi soʻzlarning kiritilishiga eʼtibor qaratish lozim. Biror tilni oʻrganish jarayonidagi muhim jihatlardan biri bu soʻz boyligining yetarlicha boʻlishidir. Aynan, soʻz yodlash murakkabroq jarayon hisoblanib, alohida eʼtiborni talab qiladi. Soʻzlarni yodlashni osonlashtirish uchun har xil shaklli kartochkalardan foydalanish samaralidir. Bu kartochkalar bolalarda qiziqish uygʻotadi va soʻzni osonroq eslab qolishida yordamlashadi. Shuningdek, ingliz tilida soʻzlarning talaffuzi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalarda toʻgʻri talaffuzni shakllantirish uchun audiolardan foydalanish maqsadga muvofiq. Bolalarga soʻzlarning qanday talaffuz qilinishini eshittirish va taqlid qilib shu soʻzni takrorlattirish orqali toʻgʻri talaffuz qilish salohiyatini oshirish mumkin.

### **XULOSA**

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, hozirgi kunda ingliz tilini oʻrganishga boʻlgan talab kuchayib bormoqda. Shu sababli ingliz tili maktabgacha taʼlim muassasalarida ham oʻrgatilmoqda. Bu yoshdagi bolalarni darsga jalb qilish qiyinroq jarayon hisoblanadi. Shuning uchun oʻqituvchi bolalarni jalb qila oladigan, ularning til oʻrganishga boʻlgan qiziqishini uygʻotadigan metodlardan foydalanishi zarur.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. <https://monster-evo.ru/uz/studentu/metodika-obucheniya-angliiskomu-yazyku-detei-doshkolnogo-vozhraasta-metodiki/>
2. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S1877042813033314/pdf>
3. <https://geniusjournals.org/index.php/ejhss/article/view/314>